

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/2025.27.12.Ped.11.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**PANJIYEV MAQSUD ALIQULOVICH**

**PEDAGOGIK JARAYONDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH ORQALI  
O‘QUVCHILAR KOGNITIV FAOLLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2026**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences

**Panjiyev Maqsud Aliqulovich**

O'quvchilarda web platformadan foydalanish asosida kompyuterli modellashtirish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish fani misolida) .....5

**Панжиев Мақсуд Алиқулович**

Механизмы повышения познавательной активности учащихся через работу с информацией в педагогическом процессе.....23

**Panjiyev Maqsud Aliqulovich**

Mechanisms for increasing cognitive activity of students by working with information in the pedagogical process .....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Ped 70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**PANJIYEV MAQSUD ALIQULOVICH**

**PEDAGOGIK JARAYONDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH ORQALI  
O‘QUVCHILAR KOGNITIV FAOLLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.4PhD/Ped/4059 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.qarshidu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kamolov Iftixor Baxtiyorovich**  
pedagogika fanlari doktori, (DSc) professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Chorshanbiyev Zafar Esanpulatovich**  
pedagogika fanlari doktori, (DSc) professor

**Jo'rayev To'ychi Norbutayevich**  
pedagogika fanlari doktori, (PhD) dots

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 aqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180100, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (99875) 225-34-13, faks: (+99875) 221-00-56; e-mail:kardu@mail.ru). Qarshi davlat universiteti, Pedagogika fakulteti, 217-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin \_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (99875) 225-34-13; faks: (99875) 221-00-56). e-mail:kardu@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ da tarqatildi  
(2025 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**R.D.Shodiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
p.f.d., professor

**I.B.Kamolov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
p.f.d. (DSc), professor

**SH.U.Nurullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi,  
p.f.d. (DSc), professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda axborotlar tarqalishi texnologiyalarining shiddatli tarzda kechmoqda – har bir jamiyatning shakllanish va rivojlanish dinamikasini belgilab berdi. Barcha sohalarda mutaxassislardan axborotlar bilan ishlash savodxonligini talab etiladi. Bu savodxonlikning asoslari maktab ta'limida, turli fanlardan amalga oshiriladigan mashg'ulotlar orqali shakllantira boshlanadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, yuqori sinf o'quvchilari axborotlar nazariyasining fundamental hamda amaliy jihatlarini haqidagi bilimlarga ega bo'la boradilar.

Dunyoda, axborotlar bilan bog'liq tahsil ishlari umumiy o'rta, o'rta-maxsus va oliy ta'lim tizimi bilan bog'liq holda izchillik hamda uzviylikda amalga oshiriladi. Bunda dastlabki tayyorgarlikning turli darajalarini hisobga olish hamda ta'lim muassasalari kontingentining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratish, xususan, o'quvchilar o'quv motivatsiyasi darajasiga e'tibor qaratish - fanlardan ularni tayyorgarlik darajasini farqlashga imkon yaratib, fanlarni o'qitish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini qiziqishlarini o'rganish natijalari, ulardagi turli axborotlarni o'zlashtirishga nisbatan tayyorgarlikni turli darajalarining obyektiv sabablarini aniqlashga imkon berdi. Unga ko'ra o'quvchilarning aksariyat qismi axborotlarni o'zlashtirish bo'yicha maktab kursini mazmuniy ta'minotdan foydalangan holda o'rganishgan. Shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim maktablarini bitirayotgan o'quvchilarning ta'lim motivatsiyasi unchalik yuqori bo'lmagani holda kognitiv faolliklari o'rtacha ko'rinishdagi kuzatiladi. O'quvchilarni ko'pchiligi o'zlarining kelgusidagi egallashni mo'ljal qilgan kasblariga bo'lgan qiziqishlari doirasini va unda o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash imkoniyatini anglamaydilar. Bundan kelib chiqadiki, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining axborotlarni o'zlashtirish va bilish faoliyatini faollashtirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy muammoligi ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga muljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2020 yil 05 oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 30 iyundagi PF-5099-son "**Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida**" Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat demokratik davlatni ijtimoiy,

huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamiz ta'lim tizimiga taqdim etilayotgan axborotlarni o'zlashtirish masalalari bilan A.A.Abduqodirov, U.SH.Begimqulov, F.M.Zokirova, N.I.Taylakov, U.Y.Yuldashev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik, integral-pedagogik jihatlari R.D.Shodiyev, Sh.O'.Nurullayeva, N.X.Oripova, Sh.R.Turdiyev, Z.E.Chorshanbiyevlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.F.Burmakina, A.A.Temberbekova, A.V.Xutorskoilar tomonidan axborot ta'lim muhitida axborotlarni o'zlashtirish kompetensiyalarini shakllantirishda ta'limni tashkil qilish holatlari qarab chiqilgan. O'quvchilar tomonidan taqdim etiladigan axborotlarni o'zlashtirish kompetensiyalarini shakllantirishda metodik tizimlarni yangilash N.G.Sobitova, YE.M.Shevchenkolarining tadqiqotlarida e'tibor qaratildi.

Xorijiy davlatlar olimlari A.Cropley, J.Bishop, K.Elizabeth, R.S.Yadav, A.Maslou, M.Sharples, S.Hollyforde hamda S.Whiddetlarning ilmiy izlanishlarida axborotlarni o'zlashtirish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-metodik, psixologik-pedagogik jihatlari ochib berildi.

O'quvchilarda axborotlarni o'zlashtirish kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning natijador metodik yechimlarini izlash mazkur tadqiqot ishini dolzarbligini belgilab berdi.

**Tadqiqot maqsadi** axborotlarni o'zlashtirish jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasini asoslash, va takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

kognitiv faollikning mazmun-mohiyatiga aniqlik kiritish, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida axborotlarni o'zlashtirish bilan bog'liq psixologik-pedagogik xususiyatlarni aniqlashtirish;

didaktik yondashuvlardan foydalanib umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida axborotlarni taqdim etish va o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasini asoslash;

transformerlarni o'z ichiga olgan o'quv-uslubiy majmualarida tizimli tartiblashtirilgan axborotlarni taqdim etish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining kognitiv faolligini takomillashtirish modelini taqdim etish, uning yordamida tahsil metodikasi ishlab chiqish hamda mazkur metodikaning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali tekshirib ko'rish.

**Tadqiqotning obyekti** - umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida axborotlarni taqdim etish, o'qitish va o'zlashtirish jarayonida kognitiv faolligini oshirish jarayoni.

**Tadqiqotning predmetini** o'quvchilarga taqdim etilayotgan axborotlarni o'zlashtirishlari asosida ularda kognitiv faollikni oshirishning takomillashtirilgan metodikasining mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari:** - nazariy: tadqiqot muammosiga oid falsafiy, ilmiy-metodik va psixologik-pedagogik manbalarni tahlil qilish. Empirik: o'quv jarayonini bevosita, bilvosita, ishtirokchi sifatida kuzatish; umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida informatikani o'qitishning ilg'or innovatsion pedagogik tajribasini o'rganish va umumlashtirish. Tashhishlash uchun o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida suhbatlar o'tkazish. Eksperimental: pedagogik tajriba-sinovni o'tkazish va ularning natijalarini qayta ishlashda matematik statistik metodlaridan foydalanish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ta'lim jarayonida axborot bilan ishlash orqali o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish imkoniyatlari aniqlashtirilgan. Bunda axborotni o'zlashtirishning pragmatik samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi kommunikativ-rivojlantiruvchi hamda diagnostik-korreksion jarayonlarga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik omillar tahliliy tizimlashtirilgan;

o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish mexanizmlari ta'limiy axborotlarning verbal, matnli, ramziy va grafik shakllarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan transformatsion metodlar hamda axborotni qabul qilish, idrok etish va baholashga doir universal o'quv harakatlarini tizimli algoritmlash asosida takomillashtirilgan;

kognitiv faollikni oshirishning pedagogik modeli ma'lumotlarni tizimli-mantiqiy strukturaga keltirishda multisensor vositalardan foydalanish hamda o'quvchilar o'zlashtirish darajasini diagnostik tahlil qilishga yo'naltirilgan loyihaviy prognozlash komponentlari bilan boyitilgan;

o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi raqamli texnologiyalar muhitida jamoaviy, guruhli va individual faoliyat shakllarini optimallashtirish, interfaol texnologiyalarni dars strukturasi integratsiyalash hamda inversiya (teskari ta'lim) usullarini tatbiq etish orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: o'quv uslubiy majmulari transformerlarni o'z ichiga olgan axborotlarni taqdim etish va o'zlashtirish metodikasi taqdim etilib, u o'zida o'quv-uslubiy resurslarni, o'quv qo'llanmalarni, nazorat va baholash mezonlari kabilar aniqlashtirilgan;

Shu bilan birga ta'lim jarayoni uchun transformerlarni o'z ichiga olgan o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishda taqdim etilayotgan axborotlarni modellashtirishning innovatsion variantlari, o'quv-metodik materiallari modullari taqdim etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot ishida keltirilgan holatlarni nazariy jihatdan asoslanganligi; psixologiya, pedagogika sohasidagi nazariy ishlanmalarga tayanilganligi, taqdim etilayotgan metodikani amaliyotga tatbiq etilganligi; pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini qayta ishlashda matematik-statistika metodlardan foydalanilganligi hamda tajribani yaxshilash bilan bog'liq ravishda maktab o'quvchilariga informatika fanini o'rgatish sifati bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati shundan iborat bo'ldiki, taqdim etilayotgan axborotlarni o'zlashtirish va o'rganishda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari kognitiv

faolligini psixologik-pedagogik xususiyatlari, o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirishning motivatsiyasi va fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari aniqlangan. Xulq-atvor tipologiyasini hisobga olgan holda o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirishni tashhislash modeli taqdim etilgan. Ushbu taqdim etilgan nazariy ma'lumotlar kognitiv faollik muammosiga doir tadqiqotlar uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim jarayonida o'quvchilarga yo'naltirilgan amaliy yondashuvlardan foydalanilganligi hamda o'qitish samaradorligi uchun zarur talablarni taqdim etilib, o'qish uchun ichki motivatsiyani oshirish bilan ta'minlangan. Axborotlarni taqdim etish, o'qitish va o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan amaliy ishlanmalar hamda metodikadan umumiy orta ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Axborotlar bilan ishlash orqali o'quvchilar kognitiv faolligini oshirishga doir olib borilgan tadqiqot ishi natijalari asosida:

pedagogik jarayonda axborotlar bilan ishlash orqali o'quvchilar kognitiv faolligini oshirishning didaktik imkoniyatlari axborotlarni o'zlashtirilish pragmatikligini oshirishga yo'naltirilgan kommunikativ-rivojlantiruvchi va hamda diagnostik-korreksion jarayonlarga ta'sir qiluvchi psixologik-pedagogik omillarni tahliliy tizimlashtirish asosida aniqlashtirishga oid ma'lumotlar "Uzluksiz ta'limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar" nomli darsligini ishlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 01-avgustdagi 277-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, 277-264-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish jarayoniga doir yondashuvlar mazmunan boyitilishiga xizmat qilgan;

ta'lim jarayonida o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish jarayoni ta'limiy axborotlarning verbal, matnli, ishoraviy, grafik shakllarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan transformatsion ta'lim metodlarini axborotni qabul qilish, idrok etish, baholash bilan bog'liq universal o'quv harakatlarini tizimli algoritmlash asosida takomillashtirishga oid takliflar "Uzluksiz ta'limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar" nomli darsligini ishlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 01-avgustdagi 277-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, 277-264-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, uzluksiz ta'lim tizimida shaxs kognitiv faolligini oshirishga doir yondashuvlar axborotlar bilan ishlashga doir ma'lumotlar bilan takomillashuviga erishilgan;

axborotlar bilan ishlash orqali o'quvchilar kognitiv faolligini oshirish modeli ma'lumotlarni tizimli va mantiqiy tashkil etishda Multisensor vositalarni qo'llash hamda talabalar bilimlarini diagnostik o'rganishga yo'naltirilgan yondashuvni loyihaviy prognozlash orqali takomillashtirishga oid takliflar "Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" nomli darslikni ishlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 01-avgustdagi 277-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, 277-304-sonli nashr guvohnomasi);

o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi axborotlarni taqdim etishda raqamli texnologiyalar orqali juft-guruh va individual faoliyatni optimal birlashtirish, interfaol texnologiyalarni o'quv jarayonining tuzilmasiga yo'naltirish hamda inversiya usullarini amaliyotga tatbiq etish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Texnologiya ta'lim va uni o'qitish metodikasi" nomli darsligini ishlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 01-avgustdagi 277-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, 277-257-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, pedagogik ta'lim jarayoni o'quvchilar kognitiv faolligini oshirish metodikasiga doir innovatsion metodikalar bilan boyitilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari, jumladan **5 ta xalqaro va 5 ta respublika** ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami **15 ta ilmiy ish** chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda **6 ta maqola**, jumladan **4 ta respublika** va **2 ta xorijiy** davlat jurnallarida nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan **2 ta mualliflik** guvohnomasi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, Dissertatsiyaning hajmi **137 sahifani** tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning ish bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'quvchilarda kognitiv faollikni rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlanib, bobda kognitivlik tushunchasi mazmuni, o'ziga xos aspektlari, kognitivlikni rivojlantirish omillari va mexanizmlari, innovatsion yondoshuvlar tahlil qilinib, muammoning tavsifiy mohiyati ochib berilgan.

Ushbu tadqiqot doirasida "kognitiv, КОГНИТИВЛИК, КОГНИТИВ faollik" tushunchasining mohiyatiga oydinlik kiritish va uning axborotlarni o'zlashtirish bilan bog'liq sohasidagi o'rnini aniqlashtirib olishni maqsad qilganmiz.


Aytish kerakki, "kognitivlik" tushunchasi ta'rifi ko'pqirrali bo'lib, falsafa, psixologiya, pedagogika sohasidagi tadqiqotlarda ular o'z aksini topgan. "Kognitivlik" atamasi falsafada "*subyektning atrof-muhit va olam haqida ishonchli ma'lumot olishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyati*" sifatida ta'riflansa, psixologik adabiyotlarda "*kognitivlik - anglash faolligi yoki ma'lumot olish va unga ishlov*

*berishga yo'naltirilgan faoliyatlarning turli ko'rinishlaridir*".

Pedagogika sohasidagi izlanishlar kognitivlikka "maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonining mohiyati" sifatida e'tirof etadi. Bizningcha esa, kognitivlik -shaxsning turli axborotlar orqali bilimlarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va yangi ma'no yaratishga qaratilgan aqliy jarayonlar majmuasi bo'lib, unga idrok, diqqat, xotira, tasavvur, mantiqiy va kreativ fikrlash kabi funksiyalar integratsiyasi amalga oshadigan tushunchadir.

Modomiki, tadqiq etilayotgan asosiy tushancha negizi "kognitiv faollik" degan so'zdan iborat ekan, bevosita ushbu so'zning talqiniga to'xtatilib o'tamiz. Kognitiv faollik – shaxsning bilish jarayoniga, o'qish istagiga, shaxsiy va hamkorlikdagi topshiriqlarning bajarilishiga, o'qituvchi va boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatga intellektual-emotsional munosabati hamda uning bilimlarni o'zlashtira borish dinamikasini belgilovchi amaliy va intellektual faoliyatga intilishdan iborat sifatlaridir.

Kognitiv faollikning tarkibiy tuzilmasini quyidagicha ifoda bo'ladi (1-rasm)




**1-rasm. Kognitiv faollikning tarkibiy tuzilmasi**

Situativ kognitiv faollik — insonning idrok, xotira, diqqat va fikrlash jarayonlarining muayyan voqea, vaziyat yoki topshiriq shartlari bilan bog'liq holda vaqtinchalik, lekin yuqori darajada faollashishi.

Tizimli kognitiv faollik o'quvchi o'qitishning maqsadlarini (asosiy maqsadini) ongli ravishda tushunib yetganigila namoyon bo'ladi: u o'z kasbiy faoliyatida axborot kompetensiyalaridan foydalanish uchun imkon qidiradi, ammo faqat o'z faoliyatining ayrim tor sohalaridagina (masalan, elektron jadvalda taomlar kalkulyatsiyasini tayyorlashda) ulardan foydalanish lozim deb hisoblaydi.

Ijodiy kognitiv faollikda o'quvchilarning tashqi motivatsiyalarida sezilarli o'zgarish kuzatiladi, ya'ni bu motivatsiya ichki (botiniy) motivatsiyaga aylanadi.

O'quvchilarda kognitiv faollikni rivojlantirish bir qator omillarga bog'liq deb hisoblaymiz (2-rasm).



Demak, bizning tadqiqotimizda asosiy e'tibor axborotlar bilan ishlash orqali

kognitiv faollikni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu borada yuqoridagi omillarni e‘tiborga olish maqsadga muvofiq.

*Axborotlar bilan ishlash orqali kognitiv faollikni rivojlantirish* jarayoni bu - shaxsning o‘ylash, eslab qolish, tahlil qilish va yangi bilimlarni yaratish qobiliyatini axborotni izlash, qayta ishlash va taqqoslash jarayoni orqali rahbatlantirishdir.

Axborotlar bilan ishlash orqali kognitiv faollikni rivojlantirishning pedagogik *shartlari* bo‘lib, quyidagicha ifodalanadi:

Minimal shart - o‘quvchining axborotni qabul qilish, idrok etish, baholash bilan bog‘liq universal o‘quv harakatlarini amalga oshira bilish qobiliyatining mavjudligi;

Maksimal shart - o‘quvchining axborotlarni faol, maqsadli va ma‘no jihatdan qayta ishlashga imkoniyat beruvchi, ichki motivatsiya va muammoli vaziyatlar bilan boyitilgan bilim muhitida o‘zini namoyon etish qobiliyatidir.

*Axborotlar bilan ishlash orqali kognitiv faollikni rivojlantirish* mohiyatan quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- taqdim etilayotgan axborotlarga oid bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj shakllanadi;
- ehtiyoj natijasida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan axborotlarga oid negizli bilim, ko‘nikma va amaliy malakalarni egallashga bo‘lgan motivatsiya paydo bo‘ladi va rivojlana boradi;

- tashqi motivatsiyaning ichki motivatsiyaga aylanib, rivojlana borishi natijasida axborot kompetensiyalari shakllanadi;

- taqdim etilayotgan axborotlarni maqsadli o‘rganish, ijtimoiy boshqariluv, reflektiv muhit kabi omillar natijasi o‘laroq, o‘quvchining axborot kompetensiyasi rivojlanadi va unda erishiladigan natijalarga bo‘lgan ehtiyoj barqarorlashadi.

Axborotlar bilan ishlash orqali kognitiv faollikni rivojlantirishda pedagog va o‘quvchilar faoliyati quyidagicha amalga oshirilishi muhim (1-jadval).

1-jadval

<i>Pedagog faoliyati</i>	<i>O‘quvchi faoliyati</i>
-o‘quvchi nazarida qiyin tuyulgan o‘quv materialiga ishlov beradi va uni biroz soddaroq ko‘rinishga keltiradi; -o‘quvchining kognitiv faolligini rivojlantirishga xizmat qiladigan hamkorlik shakllarini joriy etadi; -o‘qitish jarayonida qo‘llanilgan metod, uslub va vositalarni o‘quvchining individual imkoniyatlariga moslashtiradi.	-axborotni qabul qilishda butun diqqat, xotira va e‘tiborini safarbar etishi; -o‘qituvchi – bilimi yaxshi o‘quvchilar bilan hamkorlikda orqada qolib ketmaslikka harakat qilishi; -o‘z imkoniyatlarini munosib baholagan holda ijtimoiy faollikni namoyon qilishi; - sodir etgan barcha xatti-harakatlari natijasida o‘zida o‘quv axborotlarini yig‘ib borish orqali o‘z kognitiv faolligini rivojlantira borishi zarur.

Axborotlar bilan ishlash orqali kognitiv faollikni rivojlantirishda Axborotli yondashuvning o‘rni muhim hisoblanib, mazkur yondashuvning asosiy g‘oyalarni maktabda taqdim etilayotgan axborotlar bilan ishlash va o‘qitish maqsadlari bilan birlashtirib ishlab chiqish mumkin. Tizimli-axborotli yondashuv o‘qitish

jarayonida tadqiqotchilik va bilish faoliyatini shakllantirishga yoki tizimli fikrlash deb nomlanadigan alohida fikrlash tarzining qaror topishiga zamin yaratadi.

Tizimli-axborotli yondashuv quyidagilarga imkon beradi:

-o'quvchini faoliyatga jalb etish bilan unda tizimli fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

-o'qitishning o'quvchi imkoniyatlariga mos kasbga yo'naltirilgan mazmun, mundarija, metod va vositalarini tanlash orqali motivatsiya uyg'otish va rivojlantirish;

-o'quvchining motivatsiyasini rivojlantira borish unda kognetiv faollikni rivojlantirish uchun imkon yaratadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'quv matni axborotlarini o'zlashtirishda o'quvchilar kognitiv faolligini oshirishning takomillashtirilgan metodikasi”** deb nomlangan. Ushbu bobda axborotlar bilan ishlashda o'quvchilar kognitiv faolligini oshirishning metodik yondashuvlari va metodikasi keltirilgan.

O'quv matni axborotlarini o'zlashtirish orqali kognitiv faollikni oshirishning zaruriy *qoidasi* o'quvchilarni axborot bilan ishlashda o'z-o'zini tartibga solish bo'lib, u faoliyatning tabiati va shartlariga qarab o'z xatti-harakatlarini tartibga solish, xususan, maqsadga erishish uchun ixtiyoriy sa'y-harakatlarni namoyish etish qobiliyatida ifodalanadi. O'quv faoliyatining shakllanganligi o'z xulq-atvorini tartibga solish qobiliyatini, refleksiyaning, o'rganish uchun barqaror motivatsiya mavjudligini nazarda tutib, o'quvchiga o'zining kognetiv faolligini adekvat metodlarda amalga oshirishga imkon beradi.

Ma'lumki, pedagogik jarayon albatta “o'qituvchi-o'quvchi” munosabatlari tizimini o'z ichiga oladi, bunda o'qituvchi tashkilotchi va rahbar rovida chiqadi.

Past reproduktiv-immitatsion darajada bo'lgan bilish faoliyati bilimning rasmiyatchiligiga olib keladi. Bu esa yaqqol tushunmasdan mexanik yodlashdan iborat.

Aksariyat o'qituvchilarning fikricha, ta'lim to'liq axborot maqsadlariga qaratilmasligi kerak. O'qituvchi, hatto eng iste'dodli bo'lsa ham, yagona ma'lumot manbai bo'la olmaydi. Shu sababli, “bilimni uzatish” dan “o'rganishga o'rgatish”ga o'tish kerak. O'quvchini avval nazariy materialni tushunishga, shundan keyingina muammoni hal qilishga yordam beradigan ma'lumotlarni izlashga o'rgatish kerak. Shu sababli biz tadqiqotimiz doirasida o'quv matni axborotlarini o'zlashtirish orqali kognitiv faollikni oshirish jarayonining funksional modelini taklif etishga harakat qildik. Mazkur model maqsadi shaxsning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish va yangi bilimlar yaratish jarayonidagi aqliy faolligini tizimli ravishda oshirishdir (3-rasm).


O'quv matni axborotlarini o'zlashtirish orqali kognitiv faollikni rivojlantirish modeli o'ziga xos bloklardan iborat bo'lib, har bir blok o'quvchilarning kognitivligini rivojlantirish borasidagi harakatlarning majmuini tashkil etadi. Shuningdek, model asosida faoliyatni amalga oshirish o'quvchilarda quyidagilarga imkon beradi:

axborot bilan samarali ishlash - ma'lumotlarni izlash, saralash, tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;

ta'lim va hayotiy kompetensiyalar uyg'unligi - olingan bilimlarni amaliyotda

qo'llash, turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishni o'rgatish.

motivatsiya va qiziqishni oshirish -axborot olish jarayonida shaxsiy qiziqish va ichki ehtiyojni kuchaytirish.



3-rasm. Informatika ta'limi jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish modeli.

muammoli va ijodiy fikrlash - yangi g'oyalar, alternativ yechimlar va innovatsion yondashuvlarni topish qobiliyatini kuchaytirish;

metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish – axborotlar orqali o'z fikrlash jarayonini nazorat qilish, xatolarni anglash va to'g'ri yo'lni qayta belgilash.

O'quv matni axborotlarini o'zlashtirish orqali kognitiv faollikni rivojlantirish bir qator vositalar mavjud. Adaptatsion vositalar - o'quvchining ma'lum murakkablik darajasidagi axborotni muvaffaqiyatli tushunib bajarishiga imkon beradi. Ular o'quv muassasalarining yaxshi motivatsiyalangan o'quvchilarida maksimal samara ko'rsatdi. Transformatsion vositalar - individual-psixologik xususiyatlari va o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quvchining bu vositalarni o'z o'quv ehtiyojlariga moslab to'g'rilashga imkon beruvchi o'qitish vositalarini tushunamiz.

Kognitiv faollikni oshirish samaradorligining hal qiluvchi *talabi bo'lib*, ular quyidagilar bilan ifodalanadi.


1. O'quv matnini idrok etish, tiklash va qurishning umumlashtirilgan metodlarini shakllantirish orqali;

2. Mavzu ko'p marotabalik takrorlash yo'li bilan emas, balki taqqoslash, tushunchaviy bog'lanishlarni o'rnatish, o'quv topshiriqlarini bajarish metodi orqali;

3. O'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, so'z boyligini boyitish orqali ularning intellektual faolligi va nutqiy ijodkorlik qobiliyati rivojlantirishda fanlararo aloqalar va fanlararo integratsiyadan tizimli foydalanish, loyihaviy faoliyat tizimini yaratish, yuqorida tavsiflangan rivojlantiruvchi imkoniyatlar orqali;

4. Muvaffaqiyatli intellektual faoliyat va og'zaki ijodkorlik uchun sharoitlar dars turlari va tuzilmasini o'zgartirish, jamoaviy, juft-guruh va individual faoliyatni optimal birlashtirish, interfaol texnologiyalarni o'quv jarayonining tuzilmasiga yo'naltirish orqali.

O'quv matni axborotlarini o'zlashtirish orqali kognitiv faollikni rivojlantirishda o'quv matnlarini quyidagicha tizimlashtirib olish maqsadga muvofiq (4-rasm).



#### 4-rasm. O'quv matnlari tasnifi

O'quv matni axborotlarini o'zlashtirish orqali kognitiv faollikni rivojlantirish murakkab pedagogik jarayon bo'lib, u o'z mohiyatiga ko'ra jarayonning didaktik tamoyillariga amal qilishni talab etadi. Biz bu borada quyidagi tamoyillarni keltirib o'tamiz.

*Ma'lumotlarni tizimli va mantiqiy tashkil etish tamoyili* -matnlar strukturasi aniq, mazmun jihatdan izchil va mantiqiy bog'langan bo'lishi kerak. Bu o'quvchida bilimlarini xotirada saqlashni osonlashtiradi.

*Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili* -matnlar o'quvchi ehtiyoji, qiziqishi va o'quv maqsadlariga mos bo'lishi kerak. Mazmunning hayotiy ahamiyatga egaligi motivatsiyani oshiradi.

*Faollik va interaktivlik tamoyili* - matn faqat ma'lumot berib qolmasdan, o'quvchini savol-javob, mulohaza yoki tahlilga undashi zarur.

*Axborotni qayta ishlash va interpretatsiya qilish tamoyili* -matndagi bilimlar nafaqat yodlanishi, balki qayta tushuntirilishi, misollarda qo'llanilishi va yangi vaziyatlarga ko'chirilishi kerak.

*Modulli taqdimot tamoyili* - matnlar bosqichma-bosqich (oddiydan murakkabga) taqdim etilishi, individual qobiliyatlarga moslashgan bo'lishi zarur.

*Multisensor vositalarni qo'llash tamoyili* -matnlar rasm, jadval, diagramma, infografika, audio va video bilan boyitilishi kerak, chunki axborot qabul qilish xotira va tushunishni mustahkamlaydi.

*Refleksiya va baholash tamoyili* - matn asosida o'quvchi o'z bilimini baholash, xato va muvaffaqiyatlarini tahlil qilish imkoniga ega bo'lishi kerak.

O'quv matni axborotlarini o'zlashtirish orqali kognitiv faollikni rivojlantirish o'quvchilarning matnga nisbatan *qiziqishlarini oshirishni* nazarda tutadi. Bu esa quyidagilarda ko'rinadi:

- o'rganilayotgan axborotga alohida e'tibor va manfaatdorlik;

- matndagi obektiga nisbatan hissiy munosabat, ya'ni hayratlanish, hayajon, kulgi va boshqalar;

- matn asosida qiziqish obyektining mohiyatini, tashqi va ichki belgilarini anglash maqsadida sodir etilgan harakatlar, shu o'rinda o'quvchi tomonidan sodir etiladigan qiziquvchan harakatlarning sifati, nimaga qaratilganli muhim ekanligini aytish kerak, xususan, shaxs uzoq tikilib turishi, o'ylashni ifoda etuvchi pauzalar saqlashi ham e'tiborga olinishi lozim;

- matndagi qiziqish obektiga tez-tez yaqinlasha borishi.

Demak, axborot matni orqali kognitiv faollik o'quvchilarni kognitiv rivojlantirish bosqichidagi eng muhim vosita deb qayd etilishi lozim.

Bu borada pedagog axborot matni bilan ishlashda::

- o'quvchilarda paydo bo'lgan qiziqishni o'z vaqtida va omilkorlik bilan qiziqish obektiga yo'naltira bilish;

- o'quvchilardagi qiziqishlarni rag'batlantirib, rivojlantirib borish;

- axborot matni bilan ishlashda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini ham e'tiborga olish;

- o'quvchining qiziqish doirasini aniqlab, shu soha bo'yicha suhbatlar o'tkazish;

axborot matnlarini qiziqarli o‘yinlar orqali tushuntirishga erishish.


O‘quv matni axborotlarini o‘zlashtirish orqali kognitiv faollikni rivojlantirish quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi lozim:

- tayyorgarlik bosqichi.
- tushunish va qayta ishlash bosqichi.
- analiz va taqqoslash bosqichi.
- ijodiy qayta ishlash bosqichi.

O‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini ilmiy-metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasida bir qator metodlar taklif etildi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur metodlar o‘quvchilarda:

- axborot matnlaridan foydalanish madaniyatni rivojlantirish;
- kognitiv-tadqiqot va mahsuldor faoliyatini rivojlantirish;
- olamning yaxlit manzarasini shakllantirish.

O‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini ilmiy-metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasida bir qator metodlari sifatida quyidagi usullarni taklif etdik (5-rasm).



**5-rasm. Axborot matnlaridan foydalanish metodlari**

O‘quv matni axborotlarini o‘zlashtirish orqali kognitiv faollikni rivojlantirish metodlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, “Chek-list” metodi - o‘quvchi va o‘qituvchi tomonidan belgilangan vazifalarni to‘liq bajarilishini ta’minlash va kognitiv faollik darajasini baholashda qo‘llaniladi.

Maqsad: kognitiv jarayonlarning to‘liq va bosqichma-bosqich bajarilishini kuzatish va nazorat qilish.

“Chek-list” dan foydalanish. Tarix darsida	
1-bosqich	Mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalar va vaqt davri tushuntiriladi
2-bosqich	Tarixiy voqealar va ularning sabablari o‘rganiladi Feodal jamiyatining shakllanishi, ixtiloflar aytiladi.
3-bosqich	Turli manbalardan olingan ma’lumotlar taqqoslandi, acosiy va qo‘shimcha manbalar, hujjatlar tahlil qilinadi

4-bosqich	Muhokama qilindi va tarix saboqlari aniqlandi O'sha davr jamiyati va hozirgi jamiyat o'rtasidagi farqlar o'rganiladi.
5-bosqich	Yangi tarixiy xulosa yoki bahs yuzaga keltiriladi, masalan, feodalizmning ijtimoiy ta'siri haqidagi yangi qarashlar o'rtaga tashlanadi.
6-bosqich	Refleksiya uchun savollar berildi "Nega o'rta asrlarda jamiyat bunday shakllangan?", "Bu tarixdan nimani o'rganish mumkin?"

Tadqiqot ishining uchinchi bobi "**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uni o'tkazish metodikasi**" deb nomlangan. Tajriba-sinov ishini "pedagogik jarayonga uning samaradorligini oshirishga mo'ljallangan avvaldan o'ylangan o'zgarishlarni va natijalarni doimiy tekshirgan hamda baholagan holda kiritish metodi sifatida ta'riflash mumkin.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2022 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrlar oralig'ida Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo viloyatlari o'rta umumiy ta'lim maktablari negizida o'tkazildi.


Tajriba-sinov ishlariga 571 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Tadqiqot quyidagi mezon va darajalarga tayanadi: axborotlarni o'zlashtirishga motivatsiyaning mavjudligi, intellektual bilimga egalik, texnologik ko'nikmaning shakllanganligi. Darajalari: *vaziyatli, tizimli, ijodiy*.

Tajriba-sinov o'tkazilgan oliy ta'lim muassasalari bo'yicha o'quvchilarni umumiy baholash natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan(1-jadvalga qarang).

**1- jadval.**

**Tajriba-sinov o'tkazilgan barcha umumta'lim maktablari bo'yicha o'quvchilarni umumiy o'rtacha baholash natijalari**

Daraja ko'rsatkichlari	Motivatsion		Faoliyatli		Kreativ		O'rtacha ko'rsatkich		O'rtacha % ko'rsatkich	
	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG
<b>JAMI</b>										
<i>Yuqori daraja</i>	129	100	130	99	128	94	<b>129</b>	<b>98</b>	<b>45%</b>	<b>34%</b>
<i>O'rta daraja</i>	129	108	134	107	127	109	<b>130</b>	<b>108</b>	<b>45%</b>	<b>38%</b>
<i>Past daraja</i>	28	77	22	79	31	82	<b>27</b>	<b>79</b>	<b>9%</b>	<b>28%</b>
<b>Jami</b>	<b>286</b>	<b>285</b>	<b>286</b>	<b>285</b>	<b>286</b>	<b>285</b>	<b>286</b>	<b>285</b>	<b>100%</b>	<b>100%</b>



**4-pacm. Tajriba-sinov o'tkazilgan umumta'lim maktablari bo'yicha**

### o'quvchilarni umumiy baholash natijalari diagrammasi.

Olingan sonli ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilishda Studentning tanlama mezonini, K. Pirsonning muvofiqlik kriteriyasi, Laplas funksiyasidan foydalanildi.

Tajriba va nazorat guruhidagi baholash natijalarini mos ravishda 1 va 2-tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo'lamiz:

**2-jadval**

**Tajriba va nazorat guruhidagi baholash natijalari**

	1-tanlanma				
<b>Tajriba guruhi</b>	X <sub>i</sub>	Yuqori	Yaxshi	Past	Jami
	n <sub>i</sub>	<b>129</b>	<b>130</b>	<b>27</b>	<b>n=286</b>
	2-tanlanma				
<b>Nazorat guruhi</b>	Y <sub>j</sub>	Yuqori	Yaxshi	Past	Jami
	m <sub>j</sub>	<b>98</b>	<b>108</b>	<b>79</b>	<b>m=285</b>

O'zlashtirish darajasini quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 n_i X_i = \frac{1}{286} (129 \cdot 5 + 130 \cdot 4 + 27 \cdot 3) = \frac{1}{286} (645 + 520 + 81) = \frac{1246}{286} = 4,3566 \approx 4,3. \text{ Foizda } \bar{X}\% = \frac{4,3566}{3} \cdot 100\% = 145,22\%.$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{m} \sum_{j=1}^3 n_j Y_j = \frac{1}{285} (98 \cdot 5 + 108 \cdot 4 + 79 \cdot 3) = \frac{1}{285} (490 + 432 + 237) = \frac{1159}{285} = 4,0667 \approx 4,0. \text{ Foizda } \bar{Y}\% = \frac{4,0666}{3} \cdot 100\% = 135,56\%.$$

Tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan ko'rsatkichidan (145,22–135,56) % = 9,66% ga yuqori ekan. Bu esa o'z navbatida  $\frac{145,22\%}{135,56\%} = 1,0712$  barobar ortiqqligini anglatadi. Demak, tajriba guruhida o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagidan yuqori ekan:  $\bar{X} > \bar{Y}$ .

Ushbu o'zlashtirish ko'rsatkichlarini foizlarda hisoblaymiz:

$$P = \frac{\bar{X}}{3} \cdot 100\% - \frac{\bar{Y}}{3} \cdot 100\% = \frac{4,3566}{3} \cdot 100\% - \frac{4,0666}{3} \cdot 100\% = \frac{0,287}{3} \cdot 100\% = 9,66\%.$$

Bundan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 9,66% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Bunday metod yordamida taqqoslashning mohiyati o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning salbiy yoki ijobiy tomonga siljishlarini yuzaga chiqarish va ularning mutloq qiymatlari bilan solishtirishdan iborat. Mazkur mezonlardan foydalanish uchun bir xil xossaga va bir xil qiymatga ega bo'lgan juftliklarni tajriba-sinov boshi va oxirida o'rganib chiqish lozim.

Shu tariqa, informatika o'qitish jarayonida o'quvchilarda kognitiv faollikni rivojlantirish metodikasi asosida tashkil etilgan tajriba-sinov dars mashg'ulotlari natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni sifat va miqdor jihatdan tahlil etib, mazkur metodikadan kelgusida informatika fanini o'qitishda foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berildi.

## XULOSALAR

O'quvchilarda informatikani o'rganishdagi kognitiv faollik - o'ziga xos kognitiv-psixologik holati bo'lib, u bilish jarayoniga javob tariqasida shakllanadi. Informatika bo'yicha individual hamda guruhli mashg'ulotlarda o'qib-o'rganish va o'quv vazifalarini bajarishga tayyorgarlikni amalga oshirishda, amaliy va intellektual faoliyatga nisbatan oshib boruvchi qiziqishlarda namoyon bo'ladi, shu bilan birga, fan bo'yicha tayyorgarlikning natijadorligini belgilab beradi. Ana shular asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'quvchilarga informatikani o'qitishdagi ularning kognitiv faollikka xos bo'lgan jihatlar aniqlab olindi va buning natijasida o'quvchilar informatikani o'rganish jarayonida sodir etadigan xatti-harakatlar turlari inobatga olingan holda o'quvchilarda kognitiv faollikni rivojlantirishning uchta darajadan iborat tuzilmasi ishlab chiqildi.

2. O'quvchilar kontingentining informatikani o'rganish jarayonidagi informatika bo'yicha tayyorlikning turli darajada ekanligi; o'quvchilar mansub oilalardagi madaniyat darajasining turlichaligi; aksar o'quvchilarning o'z intellektual imkoniyatlariga ishonmasligi; maktab davri bilan bog'liq salbiy kechinmalarning mavjudligi; o'qib-o'rganishga ichki ijobiy motivatsiyaning pastligi yoki umuman yo'qligi, buning natijasida esa kognitiv faollikning past darajada ekanligi; affiliatsiya darajasining yuqori ekanligi kabi holatlarni o'z ichiga oluvchi psixologik-pedagogik o'ziga xosliklari aniqlashtirib olindi.

3. Tadqiqot davomida aniqlangan holatlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning informatikani o'rganishdagi kognitiv faolliklarini rivojlantirish uchun didaktik yondashuvlar va metodlarni joriy etish zaruratining katta ekanligi asoslab berish imkonini taqdim etadi.

4. O'quvchilarga informatikani o'qitishda joriy etiladigan asosiy didaktik yondashuvlarni kognitiv faollikni rivojlantirishga ko'rsatadigan ta'siriga qarab tabaqalashtirish metodini qo'llash orqali o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvning ularda kognitiv faollikni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatishi mumkinligi asoslab berildi.

## TAVSIYALAR

1. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi o'quv matnlariga asoslangan, matnlardan foydalanish uchun ijodiy muhit loyihasini ishlab chiqishning *"Kogniprojekt"* loyihasini taklif etish orqali ta'lim sifatini oshirish.

2. Axborotlarni izlab topish va tahlil qilishda o'quvchilarga axborot manbalaridan (internet, elektron kutubxonalar, maqolalar) mustaqil foydalanishni, axborotni saralash va ishonchli manbani tanlash ko'nikmalarini shakllantirishning *"O'quvchi va axborot olami"* nomli tugarak tashkil etish.

3. Axborot texnologiyalarini dars jarayoniga integratsiya qilish, multimedia taqdimotlari, videodarslar, virtual laboratoriyalar, onlayn testlar kabi vositalardan foydalanish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirishga qaratilgan *"Faol intellekt"* dasturini ishlab chiqish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/04.06.2020.Ped 70.02  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  
**КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ПАНЖИЕВ МАКСУД АЛИКУЛОВИЧ**

**МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОГНИТИВНОЙ АКТИВНОСТИ  
УЧАЩИХСЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ ПОСРЕДСТВОМ  
РАБОТЫ С ИНФОРМАЦИЕЙ**

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений (педагогика)

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Карши – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером В.2022.4PhD/Ped/4059**

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))

**Научный руководитель:**

**Камолов Ифтихор Бахтиёрвич**  
доктор педагогических наук, (DSc) профессор

**Официальные оппоненты:**

**Чоршанбиев Зафар Эсанпулатович**  
доктор педагогических наук (DSc), профессор

**Жураев Туйчи Норбутаевич**  
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

**Ведущая организация:**

**Термезский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_ часов на заседании Научного совета PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 по присуждению учёных степеней при Каршинском государственном университете (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел (+99875) 225-34-134, факс: (+998 75) 221-00-56, e-mail: kardu@mail.ru). Каршинский государственный университет, факультет Педагогики, 217-аудитория.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_). Адрес: 180100, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел: (+99875) 225-34-134, факс: (+998 75) 221-00-56, e-mail: kardu@mail.ru

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года  
(протокол реестра №\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.)

**Р.Д. Шодиев**

Председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.п.н., профессор

**И.Б. Камолов**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

**Ш.У. Нуруллаева**

Председатель Научного семинара при Научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.п.н. (DSc), проф.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертация доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире, образовательная работа, связанная с информацией, осуществляется последовательно и согласованно в системах общего среднего, среднего специального и высшего образования. В данном случае учёт различных уровней начальной подготовки и учёт специфики контингента образовательных учреждений, в частности, учёт уровня мотивации обучающихся к обучению, позволяет дифференцировать уровень их подготовки по предметам, что непосредственно влияет на процесс преподавания различных предметов.

Результаты исследования интересов учащихся общеобразовательных школ нашей страны позволили выявить объективные причины разного уровня их готовности к усвоению различной информации. Согласно этому, большинство учащихся изучают школьный курс по усвоению информации с использованием содержательного обеспечения. Наряду с этим, у выпускников общеобразовательных школ наблюдается низкая учебная мотивация со средним уровнем когнитивной активности. Большинство учащихся не осознают широту своих интересов в профессиях, которыми они намерены заниматься в будущем, и возможности применения в них полученных знаний. Из этого следует, что активизация усвоения учащимися общеобразовательных школ информации и их познавательной деятельности является не только педагогической, но и социальной проблемой.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-6079 от 5 октября 2020 года «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации», № УП-5349 от 19 февраля 2018 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию сферы информационных технологий и коммуникаций», № УП-5099 от 30 июня 2017 года «**О мерах по коренному улучшению условий для развития отрасли информационных технологий в республике**» и других нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данная научно-исследовательская работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

**Степень изученности проблемы.** Вопросы усвоения информации, предоставляемой системой образования нашей республики, изучены учёными как А.А. Абдукодилов, У.Ш. Бегимкулов, Ф.М. Зокирова, Н.И. Тайлаков, У.Ю. Юлдашев.

Социально-педагогические, интегрально-педагогические аспекты формирования коммуникативной компетентности будущих учителей изучали Р.Д. Шодиев, Ш.О. Нуруллаева, Н.Х. Орипова, Ш.Р. Турдиев, З.Э. Чоршанбиев.

учёными из стран Содружества Независимых Государств (СНГ) В.Ф. Бурмакиной, А.А. Темербековой, А.В. Хуторской изучены положения организации обучения по формированию компетенций усвоения информации в информационно-образовательной среде. Исследования Н.Г. Собитовой, Ю.М. Шевченко направлены на актуализацию методических систем по формированию компетенций усвоения информации у обучающихся.

Научные исследования зарубежных учёных как A.Cropley, J.Bishop, K.Elizabeth, R.S.Yadav, A.Maslou, M.Sharples, S.Hollyforde и S.Whiddet позволили раскрыть научные, методические и психолого-педагогические аспекты формирования компетенций усвоения информации.

Актуальность данной исследовательской работы обусловлена поиском эффективных методических решений для формирования и развития у учащихся компетенций усвоения информации.

**Цель исследования** заключается в обосновании и совершенствовании методики развития когнитивной активности учащихся общей среднеобразовательной школы в процессе усвоения информации.

**Задачи исследования:**

